

Shukurova Dinora Zafar qizi

Fevral oyi oxirlab qolganiga qaramay, kechasi bilan laylak qor savalab, yer yuzini oqlikka burkadi. Umida bugun kechroq turdi. Uy juda sovuq bo'lgani uchun u doim qalin ustki kiyim bilan uxlaydi. Ko'pincha, maktabga ham shu kiyimda ketadi. Shuning uchun shoshilishiga hojat yo'q, Gulnor opasini eski kurtkasini kiysa bo'ldi, maktabga ketaveradi...

Zo'rg'a yorug' kirib turgan deraza oynalariga tikilib yotgan Umida erinibgina boshini ko'tardi, paxtasi chiqib ketgan, avra-astari bir ahvolda bo'lgan, eski ko'rpani ustidan oldida, o'rnidan turdi. Tashqariga chiqib, muzdek suv bilan nomiga yuz-qo'lini yuvdi. Hovliga endi e'tibor berdi, qorlar kuralgan, lekin oyisi yo'q. "Qayerga ketdi ekan?", - o'yladi Umida. Keyin uyga kirib u yer, bu yerini tartibga keltirgandek bo'ldi. Shu payt bir choynak issiq choy ko'tarib oyisi kirib keldi. "Oyim o'tinni qayerdan topdi ekan yoki Niso xolamnikidan choy damlab chiqdimikin!", - deya xayolidan o'tkazdi. Uning parishonligini: "Nega anqayasan, tez-tez choyingni ichib maktabga jo'na!" degan ovoz buzdi.

Umidaning maktabga borgisi kelmadi, yana oyisining poyabzalini kiyadimi, yana hammaga kulgu bo'ladimi? Katta sinflar kulgani mayliku-ya, ustози Sabina opaning etigi ham xuddi shunaqa, ana shundan juda uyalyapti. To'g'ri oyisining poyabzali issiqqina bo'ladi, lekin yurganda, xuddi oyog'ing chiqib ketadiganga o'xshaydi. Oyisi bog'ichidan qisib bergan-u, baribir, dugonalari kiyadigan nozik etikchalarga o'xshamaydi-da.

- Oyijon,!, - dedi Umida oyisinikiga o'xshagan katta-katta charos ko'zlarini tikib.

- Bugun maktabga bormasam maylimi?

Oyisi nega deb so'rab ham o'tirmay

- Yo'q – javobini aytdi.

Umida tushundi, yalinishlari befoyda, nonushta qilib bo'ldi-yu, tozalab tokchaga qo'yilgan etikni shoshilmasdan kiydi. Keyin yo'lga tushdi. Dadasining uyi yonidan o'tayotganda kichik opasi O'g'iloy uni ko'rib quvonib ketdi. Bu uyda Umidaning uchta opasi dadasi bilan turishardi, yana dadasining yangi xotini bilan buvisi ham bor. Umidalar to'rt qiz, oilada o'g'il farzand yo'q, balki shuning uchun ota-onasi ajrashib ketishgandir, shuning uchun katta opalari Umidani yoqtirishmas. Umida o'zini juda aybdor his qiladi, "Agar o'g'il bola bo'lganimda dadam uylanmagan bo'larmidi, biz ham oyim bilan qiynalib yurmasmidik?" – deb ko'p siqiladi.

Oyisi bilan dadasi ajrashgandan keyin Umidani oyisi olib ketdi. Katta qizlar dadasi bilan qolishni ma'qul ko'rishdi, Umida ham qolsa bo'lardi, lekin xohlamadi u oyisini juda yaxshi ko'radi, katta opalaridek mehsiz emas, ko'zlarida kattalar tushunmaydigan bir narsa bor. Yaratguvchi zot uni shunday yaratgan, kichik yuragiga ulkan mehrni joylagan. Opalari ichida bir shu O'g'iloy oyisidan ba'zan-ba'zan xabar olib turadi.

Hozir ham shuyoqqa kelayotgan ekan, Umidani ko'rib quvonib ketdi. Uni yoniga chaqirib, qo'lidagi bananni tutqazdi:

- Ma Umi, maktabda yersan!

Umidaning ko'zlari chaqnab ketdi! Axir, bu har Yangi yil bayramida mevalarning ustida yonboshlab oladigan sariq to'nli banan-ku. Bu banan deganlari noyob narsada, "Faqat Yangi yil bayramida yeyiladi!", unda ham opalaringdan qolsa yeysan.

Umida maktabgacha bananni qo'ldan qo'ymay tikilib keldi. Juda yegisi kelsa ham yemadi. Uyga borsa oyisi bilan yeydi, oyisi ham bananni juda yaxshi ko'radi, o'zi shunaqa degan...

Maktabga yaqin qolganda bananni sumkasiga joylab qo'ydi. Har dars tugagandan so'ng tanaffusda bananga qarab qo'yardi, hatto unga: "Bananjon seni hozir yeya olmayman, uyda yeyman, oyim bilan xo'p" – deb qo'yardi. Dars tugagandan keyin oyog'idan chiqib ketay deb turgan poyabzalini ham unutdi-da uyga qarab yugurdi.

- Oyijon, - deb uyga kirib keldi.

- Qarang, banan, - dedi oyisiga bananni uzatib,

- Oyiii, bananni rosa yegim kelsa ham yemadim, chidab turdim, keling ikkalamiz yeymiz.

Umida oyisiga qarab mo'ltillab turardi. Oyisi uning gaplaridan ta'sirlanib ketdimi yoki o'zi o'pkasi to'lib turgan ekanmi, ko'zlaridan ikki tomchi yosh dumalab tushdi. Buni ko'rgan Umida onasini mahkam bag'riga bosib yig'lab yubordi. Ona va qiz ancha paytgacha shunday turishdi-yu, keyin bir-birini bag'ridan bo'shalib ko'z yoshlarini artishdi.

Umida bananning tugab qolishini hecham istamasdi. Yeyaversang, yeyaversang sira tugamasa, mazzaaa... Oyisi banandan yemadi:

- O'zing yeyaqol, qizim, sen yesang yegandek bo'laman, - dedi ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib.

- Unda sizga yarmini olib qo'yaman, keyinroq yersiz, - dedi bananning po'stidan ajratarkan.

Bu paytda Umidaning dadasi Abbas aka kelib qoldi. Umida yarmi yeyilgan bananni bir chetga qo'yib dadasining quchog'iga otildi, undan spirt hidi anqib turardi. "Ichibdilar-da",- deya xayolidan o'tkazdi Umida. Yana oyimni yig'latib ketsalar kerak deb qo'rqib turgandi, yo'q unday qilmadi. Umidani olib ketishga kelibdi.

- Sen bilan qiynalyapti, men bilan turgani ma'qul, - dedi dadasi Umidani boshini silarkan.

To'g'risini aytganda, dadasi hali ham oyisini sevadi, faqat onasining gapidan chiqolmaydi-da, sho'rlik. Shu ikki xonali hovlini ham ularga dadasi topib bergan. Ulardan tez-tez xabar olib turardi, lekin 3-4 oydan beri qadami kamayib qoldi, oxiri mana bir oydirki bugun keldi. Umidaning dadasi bilan turishiga oyisining qarshiligi yo'q, ammo Umida ko'nmaydi. U onasini yolg'iz qoldirishga ko'zi qiymaydi... Umida dadasining qo'lidagi mayda-chuyda bozorliklarni olib oyisiga uzatdi.

Abbos:

- Choy qo'yvor, Oygul, - dedi xuddi avvalgi paytlardagidek, dadil va quvnoq ovozda.

Oygul esa bu gapdan biroz o'ng'aysizlandi, ko'zlarini Abbasdan olib qocha boshladi. Buni ko'rgan Abbas gap nimada ekanligini darrov sezdi. Ichida o'zini rosa koyidi: "Bir

oydan beri kelib-ketsang bo'lardi-ku, nomard. Axir uyam birovning bolasi, sen bilan umid qilib bir yostiqa bosh quygandi-ku, pastkash. Nega faqat birovlarining gap so'zlari bilan yashaysan? Farzandsizlar qancha, to'rt qizining borligiga shukur qilsang bo'lmasmidi, iymonsiz...".

Shu o'y-xayollarda chiqib ketgan Abbos qayerdandir o'tin topib keldi, bir yarim oydan beri o'tin ko'rmagan tanchani qizdirdi. Uy ichi tezda isib, uchchovining ham ko'ngli yorishib ketdi. Dasturxonga Abbos olib kelgan, yumshoqqina pishirilgan tovuq go'shti qo'yildi, choy damlandi, qisqasi oddiygina dasturxon tuzaldi. Abbosning ichiga 1-2 qultim kirmaganmi rosa hangomalardan aytib qizi bilan xotin (sobiq) ini kuldirdi. Oygul yaqin ikki yildan beri bunday yayrab kulmagandi, barcha tashvishlarni unutdi. O'n yetti yoshlarda ekan sinfdoshlari bilan bayramlarda yig'ilishganda ham Abbos hammani shunaqa kuldirardi...

Oygul va Abbos sinfdosh bo'lishgan, balki bir-biriga bo'lgan mehri o'sha maktab chog'larida uyg'ongandir. Hozir shularni o'ylar ekan Oygul yana ma'yus tortib qoldi. Bir quvonib kulayotgan qiziga, bir yosh bolaga aylanib qolgan Abbosga qarardi. Keyin o'rnidan turdida:

- Men dam olaman,- deb ichkari uyga kirib ketdi...

Abbos bu kecha shu yerda tunaydigan bo'ldi. Oygulni chaqirmay o'zi joy soldi-yu, qizini bag'riga bosib uyquga ketdi.

Saharga yaqin Abbos qo'rqinchli tush ko'rib uyg'onib ketdi, qarasa yonida qizchasi junjikib yotibdi, ustiga eski kurpani yopdi-da, hovliga chiqib ketdi. Uzoq vaqt sigaret tutatib, keyin uyga kirdi. Sekin Oygul yotgan ichkari uyga kirdi.

- Oygul,- dedi past ovozda,

- Meni kechir, iltimos. Vijdonsizlik qildim, menga bergan shuncha mehringga javobim shu bo'ldi, kechir meni. "Nimalar deyapman o'zi, axmoqman buni boshqasiga uylanmasdan oldin o'ylash kerak edi".

Abbos ortiga burilib ketmoqchi edi negadir Oygulning qilt etmay yotishi unda shubha uyg'otdi. Axir u juda sezgir uxlaridi-ku, ajablandi Abbos. Yoniga borib qo'lidan ushladi, ushladi-yu xayoliga kelgan fikrdan qo'rqib ketdi: "Nahotki... yo'g'e-e-e unday emasdir". Egilib Oygulning yuragini eshitib ko'rdi. Yo'q, yurak urmayapdi: "Bo'lishi mumkin emas, men eshitolmadim shekilli, shifokor chaqirish kerak...".

Yarim soatda yetib kelgan shifokorlar uni chamasi uch soatlar oldin joni uzulganini aytishdi, ko'zoynak ortidan Oygulning jonsiz tanasini kuzatar ekan: "Ayolingizning biror kasali bormidi?" - dedi.

- Yuragi bezovta qilib turardi.

- Tushunarli, yurak xurujiga o'xshayapti.

- Bu nima degani? Tushuntiribroq gapiring.

- Bu holat fanda yurak qorinchasining fibrilatsiyasi deyiladi. Taxikardiyaning og'ir turi. Bunda yurak chastotasi daqiqasiga 250dan 480gacha uradi. Ko'p hollarda kasallik oldi olinmasa, o'lim bilan yakunlanadi.

- Qanaqasiga? Nima uchun? U kecha yaxshi edi.

- Menimcha, bu kasallik anchadan buyon bemorni bezovta qilib kelgan ko'rinadi.

Ba`zan yurak tez urib, yana o`zi sekinlashadi. Lekin bu surunkali davom etsa...

Abbosning boshqa bir so`z deyishga majoli qolmadi. U hech narsani anglamas, shifokorning so`zlari ham allaqanday uzoqlardan kelayotgandek tuyuldi. Devorga suyanib turardi, xuddi unga suyanmasa yiqilib ketadigandek.

- Bu tahminlar xolos, hammasi ekspertizada ma`lum bo`ladi.

- Yo`q, bunga yo`l qo`ymayman, - baqirdi Abbos, hech bo`lmasa murdasini tinch qo`yinglar, uning ortidan faqat gapirasizlar, og`il tug`maysan, ering bilan ajrash deysiz, ajrashsa benomusga chiqarasizlar. Abbos baland ovozda allakimlarga gapirardi.

Shifokorlar hech narsaga tuunmay, jim qolishgandi. Oygul to`rtinchi qizini dunyoga keltirayotganda shu kasallkni orttirib oldi. Shifokorlar davolanishi kjerakligini tayinlashgan bo`lishiga qaramay, buni ortga surib kelardi...

Mayitni peshinga chiqarishdi. Hamma marosimlar bajarilgandan so`ng, erkaklar tobutni ko`tarib qabristonga yo`l olishayotganda, uydin ro`mol o`ratib, egniga o`ziga yarashmagan, uzun ko`ylak kiygizib qo`yilgan Umida yugurib chiqdi:

- Oyijon, - dedi bir kunda yanayam ma`yuslashib qolgan ko`zlaridan oqayotgan yoshlarni artib,

- Axir, bananni yemay ketibsiz-ku.

Bu oyisiga erkalik qilayotgan 8 yoshli qizchaning ovozi edi. Yig`i ovozi birdan tindi hammaning ko`zi Umidada edi. Umida esa dadasining yoniga borib qo`lidagi yarmi tishlangan, ozgina qorayib qolgan bananni tobut tomonga uzatdi. Hamma boyagidan battarroq yig`ladi, nomiga kuyinayotgan kundoshi ham baland ovoz bilan baqirib yubordi. Endi uning ko`zidan chinakam yoshlar oqardi...

Janozadan keyin hamma tarqaldi. Umidani dadasi o`zi bilan olib ketdi. Uning qo`llarida hamon yarmi tishlangan, qorayib ketgan banan turardi.

